

METHODOLOGY OF TEACHING PROFESSIONAL COMMUNICATION IN A FOREIGN LANGUAGE FOR STUDENTS OF AGRICULTURAL EDUCATION FIELDS

Nuratdinova Jupargul Satbaevna

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

13.00.02. Theory and Methodology of Education and Training

(English Language) I-Level Doctoral Student

ANNOTATION

Even for all students, in particular students of the agricultural direction, excellent knowledge of a foreign language, the development of their professional skills, comprehensive study and research of innovations in the field are one of the priority tasks. Nowadays, the demand for the agricultural sector in particular has increased more than ever. Raising the level of knowledge of students to a higher level, raising them in every possible way, ensuring their further growth mentally in a positive sense is the first task pursued in the realization of the goal set for teaching a foreign language. The article presents ideas about the methodology for teaching professional communication in a foreign language, the development of professional skills and abilities for students of the field of agricultural education.

Keywords: methodology, foreign language, professional skills, qualifications, student, agriculture, level, knowledge, activity, professional communication.

ANNOTATSIYA

Barcha talabalar, xususan, qishloq xo'jaligi yo'nalishi talabalari uchun ham chet tilini mukammal darajada bilish, kasbiy ko'nikmasini rivojlantirish, sohadagi yangiliklarni har tomonlama o'rganish va tadqiq qilish ustuvor vazifalardan biridir. Hozirgi kunda, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasiga talab har qachongidan ham oshdi. Talabalarning bilim saviyasini yuqori darajaga ko'tarish, har tomonlama yuksaltirish, ijobiy ma'noda aqlan yanada ulg'ayishini ta'minlash chet tili o'qitish bo'yicha qo'yilgan maqsadning ro'yobga chiqishida ko'zlanadigan birinchi vazifadir. Maqolada qishloq xo'jalik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun chet tilida kasbiy muloqotni o'rgatish metodikasi, kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish haqida fikrlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: metodika, chet tili, kasbiy ko'nikma, malaka, talaba, qishloq xo'jaligi, saviya, bilim, faoliyat, kasbiy muloqot.

АННОТАЦИЯ

Даже для всех студентов, особенно студентов сельскохозяйственных специальностей, владение иностранным языком в совершенстве, развитие профессиональных навыков, всестороннее изучение и исследование инноваций в этой области являются одними из приоритетных задач. В настоящее время спрос, особенно на сельскохозяйственный сектор, вырос как никогда. Повышение уровня знаний учащихся до высокого уровня, всестороннее их повышение, обеспечение дальнейшего умственного роста в позитивном ключе – это первая задача, намеченная при реализации поставленной цели по обучению

иностранному языку. В статье представлены идеи по методике обучения профессиональному общению на иностранном языке, развитию профессиональных навыков и умений студентов сельскохозяйственного образовательного направления.

Ключевые слова: методика, иностранный язык, профессиональные навыки, квалификация, студент, сельское хозяйство, уровень, знания, деятельность, профессиональное общение.

KIRISH

Bilamizki, chet til o'qitish metodi deyilganda, chet til o'rgatishning amaliy, umum ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishishni ta'minlovchi o'qituvchi va o'quvchi(talaba) faoliyatining majmuyi tushuniladi. Metodika esa oliy ta'limda berilgan bilimlar yig'indisi bilan maktab tajribasi orasidagi „ko'prik“ vazifasini bajaruvchi fandir. Jumladan, oliygohlarda leksiya va amaliy mashg'ulotlarda chet til o'qitish qonuniyatlari, maqsad, vazifalari, ko'nikmalari bayon etiladi, metodika faniga ta'limning xususiy nazariyasi sifatida qarash shakllantiriladi. Talaba metodika kursini egallar ekan, uch toifa mashg'ulotda ishtirok qiladi: oliy o'quv yurti dasturi asosida leksiyalar majmuyini tinglaydi, amaliy-metodik saboqlar oladi va o'quv-tarbiya pedagogika amaliyotidan o'tadi. Dastlabki ikki mashg'ulotda ilm bilan mashg'ul bo'lishadi va so'nggi ish turida esa o'quvchi(talaba) dars berishadi va darsdan tashqari tadbirlar o'tkazishadi.

Barcha talabalar qatori qishloq xo'jaligi yo'nalishi talabalari uchun ham chet tilini mukammal egallash, kasbiy ko'nikmasini rivojlantirish, sohadagi leksik birliklar tarjimasini, talaffuzlarini to'g'ri talqin qilish ustuvor vazifalardan biridir. Hozirgi global davrda, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasiga talab har qachongidan ham oshdi. Soha yutuqlarini faqatgina yurtimizda amalga oshirmasdan, balki chet el davlatlaridagi yutuqlarni ham o'zlashtirish talab etiladi. Bunday ishlar uchun, avvalo, o'z ishining ustasi va, albatta, chet tillarni mukammal bilishlik shartdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Prof. Mixail Vasilyevich Lyaxovitskiy ta'riflashicha, chet til o'qitish metodikasi ta'limning maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet tili yordamida ta'lim-tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi fandir. Metodika fani, asosan, quyidagi uch yirik mavzuni o'rgatadi: chet til o'rgatishning nazariy muammolari, nutq faoliyati turlarini o'rgatish va chet til o'rgatishning tashkiliy masalalari. Aniqroq aytganda, metodika chet til o'rgatish ilmi bo'lib, „chet til“ni o'quv predmeti sifatida belgilaydi, o'qituvchi va o'quvchi(talaba) faoliyatini o'rganadi va boshqa fanlar yutuqlarini o'zlashtirish va o'z qonuniyatlarini ishlab chiqish yo'llarini tadqiq etadi.

Ba'zi adabiyotlarda keltirilishicha, qishloq xo'jaligi yo'nalishida ta'lim olasyotgan talabalarining o'quv faoliyatida ko'nikma va malakalarning hosil bo'lish darajasiga ko'ra shaxsning ijtimoiy faolligi aniqlanadi. Ta'limda o'quv ko'nikma va malakalarining to'rtta toifasi tasnif etiladi. Ular tashkiliy, aqliy, axborot va muloqot o'quv ko'nikma va malakalari deb atalishi mumkin.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Chet tilini o'qitishda kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun, avvalo, qishloq xo'jalik yo'nalishi talabalarining aqliy saviyasini, mutaxassisligi bo'yicha bilimlarini yanada o'stirish, rivojlantirish kerak. Shundan so'ng chet tili fanidan amaliy, nazariy bilim va ko'nikmalar egallansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, talabalarining bilim saviyasini yuqori darajaga ko'tarish, aqliy jihatdan ravnaq toptirish, mazmunan yuksaltirish, ijobiy ma'noda aqlan yanada ulg'ayishini ta'minlash ushbu maqsadning ro'yobga chiqishida ko'zlanadigan birinchi vazifadir. Ikkinchidan, chet til o'rganishda rivojlantiruvchi maqsad o'quvchilarning his-tuyg'ularini kamol toptirish, tashqi ta'sirni sezgilar va analizatorlar yordamida idrok etib tushunishni ravnaq toptirishni nazarda tutadi. Uchinchidan, rivojlantiruvchi maqsadning talabalar oldiga qo'yadigan vazifalari qatoriga yana ichki turtki (ruhshunoslik termini bilan aytganda, motivatsiya)ni uyg'otish, faol ishga tushirish kabilar ham kiradi. Demak, talabalar chet tili metodikasini, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun aql, bilim, keng dunyoqarash, tafakkur, hissiyot, motivatsiya kabilar kerak.

Chet tilni amaliy egallashda ta'lim berish, tarbiyalash va, natijada, shaxsning atroflicha kamolotga erishishiga ko'maklashishdek muqaddas va murakkab pedagogik chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Ruhshunoslar va pedagoglarning e'tirof etishlaricha, talabalarlarga (qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi talabalar ham shular jumlasidandir) ta'lim jarayonida yetarli miqdorda qiyinchiliklarni yengib borish o'rgatilsagina, ularning tafakkurini tezkorlik bilan rivojlantira olish mumkin. Shaxsning kamoloti faqat tafakkur rivoji bilan emas, balki uning his-tuyg'ulari ravnaqi bilan ham bog'liqdir.

Chet til metodikasi ilmida talabaning ichki kechinmalari (emotsiyasi) va ichki turtkisi (motivatsiyasi)ni ro'yobga chiqarish muhim ekanligi nazariy asoslab berilgan. Oqibatda chet til o'rganish motivatsiyasi oshadi, o'quv jarayoni to'laqonli mazmun kasb etadi. Shularning barchasi chet til dasturida rivojlantiruvchi maqsadning o'rin egallashiga sabab bo'ldi.

Ta'lim mazmuni, jumladan, chet til o'qitish mazmuni, obyektiv voqelikdagi tabiiy va ijtimoiy sohalarda to'plangan tajribalardan darslar mobaynida talabalarga singdiriladi. Chet til o'qitish mazmuni talabalar tasavvurida g'oyat ulkan dasturiy o'quv materialini hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, tanlangan o'qitish mazmuni talabalar nazarida maksimum (eng ko'p hajmda) o'rganish, o'qituvchi nazarida esa minimum (eng kichik hajmda) o'rgatish materialidir.

Chet til o'qitish mazmuni talabalar o'zlashtirishlari xususiyatlari, bilim saviyasi e'tiborga olinadi, taqsimlanadi, tasniflanadi va o'rganish uchun topshiriqlar taqdim etiladi. Tanlash, tasnif, taqsimot va taqdimot bosqichlari muayyan metodik mezonlar yordamida amalga oshiriladi.

Ta'lim qayerda, qachon va qanday tarzda berilishidan qat'i nazar, avvalo, axborot singdirish demakdir. Pedagogik ma'lumotlariga ko'ra o'qitish - muayyan hajmdagi axborot berish demakdir. Axborot haqida to'liq ma'lumot bermasdan, falsafada aytiladigan „Axborot - in'ikos jarayonining bir ko'rinishidir“ degan ta'rifni keltirish yetarlidir. Talabalar olishi va yetkazishi mumkin bo'lgan axborotlarni ham metodik tasniflash imkoni mavjud. Chet tilda beriladigan axborot o'quvchilar qiziqishiga mos, umumta'lim va tarbiyaviy yo'nalishda, mavzular doirasi va til materialini asosida hamda ularning umumiy saviyasini ko'tarishga qaratilgan bo'lishi talab

qilinadi. Umumiy aytilganda, mavzu - tashqi ko'rsatkich, axborot esa ichki tomon sifatida chet til o'qitishning mazmunida yagona tarkibiy qismni tashkil etadi.

Mavzularga tegishli xususiy metodik mezonlardan tashqari chet til o'qitish mazmunini tanlashning umumiy mezon (prinsip, kriteriy)lari ham fanda ishlab chiqilgan. Ulardan nazariya va amaliyotda keng qo'llanib kelinayotganlari uchta¹. Chet til o'qitish mazmunini tanlashning birinchi umumiy mezon o'quv dasturida e'tirof etilgan „maqsadlami amalga oshirish uchun yetarlilik“ nomi bilan yuritiladi. Mezonning ma'nosi shundan iboratki, tanlab olingan mazmun nutq malakalarini hosil qilish uchun xizmat qiladi.

O'qitish mazmunini tanlashda „mazmunni o'zlashtirish uchun o'qitish sharoiti, imkoniyatlari mavjudligi“ ikkinchi mezon hisoblanadi. Sharoit talabalarga o'qitish mazmunini egallash imkonini yaratishga ko'maklashadi.

Uchinchi mezon sifatida chet til o'qitish mazmunini tanlashdagi „o'zlashtirishning retseptiv va reproduktiv xususiyatlarini hisobga olish“ qabul qilingan.

Qishloq xo'jaligi sohasidagi ko'nikma va malaka haqidagi ta'limotni chet tillar o'qitishga tatbiq etib, ko'nikmani nutq faoliyatining avtomatlashgan qismi deyishni va nutq faoliyati turlarining leksik, grammatik va talaffuz ko'nikmalari tushunchasini tavsiya etish ham mumkin. Bu sohaning ilmiy saviyasi va ko'nikmalarini yanada rivojlantiradi.

Taniq ruhshunos olim, prof. Nikolay Ivanovich Jinkin ijodiga mansub nutq mexanizmlari nazariyasiga² asoslanib chet tillar metodikasi yorqin iste'dodlaridan prof. V.S.Setlin nutqning grammatik mexanizmi tushunchasini kashf etdi³. Metodist olima ilmiy konsepsiyasiga ko'ra nutqning grammatik mexanizmlari uch qismdan iborat: 1) grammatik harakatlarni egallash; 2) tayyor materialni o'zlashtirish va 3) grammatik materialga oid umumlashmalami o'rganib olish. Uchalasidan ustuvori grammatik harakatlarni o'zlashtirishdir. Grammatik harakat deyilganda, V.S.Setlin nutq malakalarining ongli avtomatlashgan qismi - ko'nikmalarni nazarda tutadi. Ushbu harakatlar ruhshunoslar va psixolingvistlar e'tiroficha, aqliy operatsiyalardan tarkib topadi. Harakatni bajarish usuli operatsiyadir. Operatsiyalar yig'indisi harakatni hosil qiladi.

XULOSALAR

Bir so'z bilan aytganda, talabalar, xususan, qishloq xo'jaligi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar chet tili o'rganishdagi kasbiy ko'nikmalar rivojlantirishlari, o'z malakalarini yanada o'stirishlari hozirda ustuvor vazifalardandir. Demak, chet til o'qitish mazmuni tushunchasi (nutq mavzulari, nutq malakalari va til materiali qismlari)ning har biri, o'z navbatida, kvalitatif (sifat) kompressiyasidan o'tishi, shundan keyingina talabalar o'rganishi uchun taqdim qilinishi kabilami anglatadi.

¹ Теоретические основы методики обучения иностранным языкам в средней школе. / Под ред. А. Д. Климентенко, А. А. Миролюбова - М.: Педагогика, 1981. - 89 - 90-бетлар. (Aygim qo'llanmalarda umumiy mezon (prinsip) ikkita ko'rsatilgan: Гез Н. И., Ляховицкий М.В., Миролюбов А. А. и др. Методика обучения иностранным языкам в средней школе: Учебник. — М.: Высшая школа, 1982. —55-бет)

² Н. И. Жинкин. Механизмы речи. — М.: Изд-во АПН РСФСР, 1958.

³ В. С. Цетлин. Основы методики обучения грамматике французского языка в средней школе: Автореф. докт. дисс. — М., 1966. 62

ADABIYOTLAR

1. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent – 2012.
2. Xudayberdiyev Akram Akbarovich. Abdulhamid Cho'lpon ijodida "vatan" va "millat" badiiy konseptlari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7483119>
3. Гез Н.И., Ляховицкий М.В., Муролубов А.А. Методика обучения иностранным языкам в средней школе: Учебник. — М.: Высшая школа, 1982.
4. Жинкин Н.И. Механизмы речи. — М.: Изд-во АПН РСФСР, 1958.
5. В.С.Цетлин. Основы методики обучения грамматике французского языка в средней школе: Автореф. докт. дисс. — М., 1966.